



A PHILOSOPHICAL-COMPARATIVE ANALYSIS OF APPROACHES TO THE FORMATION OF THE CONCEPT OF INTELLECTUAL MIGRATION

Sardor K. Alimov

Acting Head of the Department, Associate Professor, PhD

Department of Social-Humanitarian Sciences

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

sardoralimov2507@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: intellectual migration, brain drain, brain gain, brain circulation, human capital, transnationalism, relative poverty (relative deprivation), migration theories, comparative analysis.

Received: 04.05.26

Accepted: 05.05.26

Published: 06.05.26

Abstract: This article focuses on a comparative analysis of theoretical and philosophical approaches to the formation, development, and contemporary interpretations of the intellectual migration phenomenon. Based on ontological and methodological criteria, the study comparatively analyzes the instrumental-political, neoclassical-rational, existential-humanistic, critical postcolonial, and hybrid-anthropological approaches explaining the mobility of highly qualified professionals in the context of globalization. The analysis demonstrates that scientific perspectives on intellectual migration are shifting from the traditional “brain drain” paradigm to more complex approaches such as “brain gain” and “brain circulation”.

INTELLEKTUAL MIGRATSIYA TUSHUNCHASI SHAKLLANISHIGA OID YONDASHUVLARNING FALSAFIY-KOMPARATIVISTIK TAHLILI

Sardor K. Alimov

Kafedra boshlig'i v.b., dotsent, PhD

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi,

sardoralimov2507@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: intellektual migratsiya, intellektual kapital oqishi (brain drain),

Annotatsiya: Ushbu maqola intellektual migratsiya fenomenining shakllanishi,

интеллектуал капитал qaytishi (brain gain), интеллектуал капитал aylanishi (brain circulation), inson kapitali, transmilliylik, nisbiy qashshoqlik (nisbiy deprivatsiya), migratsiya nazariyalari, komparativistik tahlil.

rivojlanishi va zamonaviy talqinlariga oid nazariy hamda falsafiy yondashuvlarning komparativistik tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotda globallashuv sharoitida yuqori malakali mutaxassislar mobilligini izohlovchi instrumental-siyosiy, neoklassik-ratsional, ekzistensial-gumanistik, tanqidiy postkolonial va gibrid-antropologik yondashuvlar ontologik hamda metodologik mezonlar asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlillar natijasida intellektual migratsiya haqidagi ilmiy qarashlar an'anaviy "интеллектуал капитал oqishi" (brain drain) paradigmasidan "интеллектуал капитал qaytishi" (brain gain) va "интеллектуал капитал aylanishi" (brain circulation) kabi kompleks yondashuvlarga o'tayotgani ko'rsatiladi.

ФИЛОСОФСКО-КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ ПОДХОДОВ К ФОРМИРОВАНИЮ ПОНЯТИЯ «ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ МИГРАЦИЯ»

Сардор К. Алимов

И.о. начальника кафедры, доцент, PhD

Кафедра социальных и гуманитарных наук

Правоохранительная академия Республики Узбекистан

sardoralimov2507@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: интеллектуальная миграция, утечка умов (brain drain), приток умов (brain gain), циркуляция умов (brain circulation), человеческий капитал, транснационализм, относительная бедность (относительная депривация), теории миграции, компаративистский анализ.

Аннотация: Данная статья посвящена компаративистскому анализу теоретических и философских подходов к формированию, развитию и современным интерпретациям феномена интеллектуальной миграции. В исследовании на основе онтологических и методологических критериев проводится сравнительный анализ инструментально-политического, неоклассически-рационального, экзистенциально-гуманистического, критического постколониального и гибридно-антропологического подходов, объясняющих мобильность высококвалифицированных специалистов в условиях глобализации. Результаты анализа демонстрируют, что научные взгляды на интеллектуальную миграцию переходят от традиционной парадигмы «утечки умов» (brain drain) к таким комплексным подходам, как «приток умов» (brain gain) и «циркуляция умов» (brain circulation).

Kirish. Globallashuv jarayonlarining misli ko‘rilmagan darajada jadallashuvi hamda transmilliy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy maydonda inson kapitali harakatlanishini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu murakkab jarayonda, ayniqsa, yuqori malakali mutaxassislar, olimlar, muhandislar va ziyolilarning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko‘chishi, ya’ni intellektual migratsiya fenomeni zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlarning eng bahsli va dolzarb tadqiqot obyektiga aylandi. Dastlabki davrlarda, ayniqsa Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda, bu hodisa asosan rivojlanayotgan mamlakatlar va post-kolonial hududlar uchun mutlaq iqtisodiy hamda intellektual yo‘qotish, ya’ni “intellektual kapital oqishi” (brain drain) sifatida talqin qilingan. Biroq, global iqtisodiy tizimning integratsiyalashuvi va xalqaro mehnat bozorining moslashuvchanligi ortib borishi bilan, ilmiy diskurs “intellektual kapital qaytishi” (brain gain) va “intellektual kapital aylanishi” (brain circulation) kabi ancha murakkabroq, dialektik va ko‘p qirrali konsepsiyalar bilan boyidi.

Intellektual migratsiya nazariyasining evolyutsiyasi ilmiy tafakkurda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan, u chuqur tarixiy, sotsiologik va ijtimoiy-falsafiy ildizlarga tayanadi. Migratsiya jarayonlarini ilmiy tahlil qilishning ilk qadamlari XIX asr oxirlariga borib taqaladi. 1885-yilda britaniyalik kartograf va demograf Ernst Georg Ravenshteyn (Ravenstein) tomonidan ishlab chiqilgan “Migratsiya qonuniyatlari” odamlarning hududiy harakatlanishini tartibsiz (xaotik) emas, balki muayyan iqtisodiy, demografik va ijtimoiy qonuniyatlarga bo‘ysunuvchi tizimli jarayon sifatida birinchi bo‘lib ilmiy doiraga olib kirdi. Ravenshteyn Buyuk Britaniya aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga tayanib, migratsiya asosan qisqa masofalarga yuz berishini, u bosqichma-bosqich amalga oshishini, shuningdek, uzoq masofalarga ko‘chuvchilar asosan yirik sanoat va savdo markazlariga intilishini isbotladi. Shuningdek, u har bir migratsiya oqimi o‘ziga qarshi kompensatsion oqimni keltirib chiqarishini va migratsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi iqtisodiy sabablar ekanligini ta’kidladi.

Ammo zamonaviy intellektual migratsiyaning xususiyatlari faqatgina geografik masofa yoki oddiy daromad farqlari bilan izohlanmaydi. Taniqli migratsiya sotsiologi Stiven Kastlz (Stephen Castles) ta’kidlaganidek, xalqaro migratsiya favqulodda murakkab, ko‘p o‘lchovli va global ijtimoiy transformatsiya jarayonlarining uzviy qismidir. Kastlzning fikricha, akademik doiralarda migratsiya va taraqqiyot o‘rtasidagi bog‘liqlikka doir qarashlar tarixan mayatnik singari davriy ravishda o‘zgarib turgan. 1950-1960-yillarda neoklassik iqtisodiy yondashuvlarga asoslangan rivojlanish optimizmi ustunlik qilgan bo‘lsa, 1970-1980-yillarda neo-marksistik, qaramlik nazariyasi va jahon tizimi nazariyasiga asoslangan pessimizm (aynan “intellektual kapital oqishi” qurboni bo‘lish qo‘rquvi) yetakchi o‘ringa chiqdi. Bugungi kunda esa transmilliy yondashuvlar va yangi iqtisodiy modellar ta’sirida yanada nozikroq, har ikki tomonning ham

(donor va retsiyent davlatlar) manfaatlarini qamrab oluvchi plyuralistik qarashlar shakllangan. Ushbu intellektual evrilishlar migratsiyani anglashda turli xil ontologik (inson tabiati, uning jamiyatdagi oʻrni va mohiyati haqidagi) hamda metodologik (voqelikni oʻrganish, oʻlchash va tahlil qilish usullari) maktablarning shakllanishiga olib keldi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu maqolada intellektual migratsiya tushunchasining shakllanishi va nazariy evolyutsiyasini oʻrganish maqsadida kompleks sifatli tahlilga asoslangan komparativistik (qiyosiy), tarixiy-falsafiy va tizimli-strukturaviy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida sotsiologiya va ijtimoiy falsafada qabul qilingan paradigma tahlili usuli tanlandi. Bu usul turli ilmiy qarashlarni ularning fundamental negizlari boʻyicha toifalarga ajratish imkonini beradi. Intellektual migratsiya doirasidagi oʻnlab kichik nazariyalar sintez qilinib, beshta asosiy konseptual yondashuvga birlashtirildi va ular ikkita qatʼiy mezon boʻyicha qiyoslandi: ontologik pozitsiya va metodologik yondashuv.

Birinchi mezon hisoblangan ontologik nuqtayi nazar tadqiqot obyekti hisoblangan intellektual migrantning kimligi va uning jamiyatdagi birlamchi mohiyati nima ekanligini aniqlashga xizmat qiladi. Bu oʻlchov orqali insonni faqatgina davlatning iqtisodiy resursi (instrumentalizm), oʻz manfaati yoʻlida foyda va zararni ongli ravishda hisoblaydigan mustaqil iqtisodiy aktor (ratsionalizm), oʻzining ijtimoiy va maʼnaviy erkinligini qidiruvchi ekzistensial shaxs (gumanizm), global zoʻravonlik va kapitalistik tizim qurboni (krititsizm) yoxud murakkab ijtimoiy tarmoqlar ichidagi interaktiv borliq (antropologizm) sifatida qabul qiluvchi turli falsafiy dunyoqarashlar tizimlashtirildi.

Ikkinchi mezon boʻlgan metodologik yondashuv esa turli ilmiy maktablarning voqelikni qanday oʻlchashi, baholashi va empirik tahlil qilishini koʻrsatib beradi. Ayrim maktablar, masalan, neoklassik iqtisodchilar asosan makroiqtisodiy koʻrsatkichlar, miqdoriy statistika va global siyosatga tayansa, boshqalari mikrodarajadagi subyektiv insoniy kechinmalar, biografik hikoyalar, transmilliy norasmiy aloqalar yoki tarixiy adolatsizlik diskurslariga tayanadi. Ushbu mezonlar doirasida tadqiqot materiallari sifatida yetakchi sotsiologlar, faylasuflar (jumladan, Ravenshteyn, Kastlz, O.Stark va boshqalar)ning ilmiy tadqiqotlari va xalqaro tashkilotlarning (Jahon Banki, JSST) hisobotlari qiyosiy oʻrganildi.

Natijalar. Ilmiy adabiyotlarni ontologik va metodologik prizmalar orqali oʻrganish natijasida intellektual migratsiyani tushuntiruvchi beshta yirik konseptual yondashuvni ajratib olish mumkin. Har bir yondashuv inson kapitalining harakatlanishini oʻziga xos tarzda talqin qiladi va siyosiy qarorlar qabul qilish uchun turli xil tavsiyalar beradi.

Instrumental-siyosiy yondashuv

Instrumental-siyosiy yondashuv intellektual migratsiyaga asosan kollektivism va siyosiy realizm nuqtayi nazaridan yondashadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, intellektual migrantlar avvalo jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi uchun xizmat qilishi lozim bo'lgan "vosita" yoki iqtisodiy resurs sifatida tushuniladi. Inson kapitali bevosita milliy boylikning ajralmas qismi hisoblanib, insonning qadr-qiyamati va ijtimoiy funksiyasi uning davlat mudofaa qobiliyati, iqtisodiyoti va intellektual salohiyatiga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi. N.N.Xasbulatova ta'kidlaganidek, intellektual kapital bu shunchaki individual qobiliyat emas, balki "davlatning strategik resursi va milliy boylikning asosiy shakli"dir. Shu bois, davlatlararo geosiyosiy raqobatda u qudratni belgilovchi "geosiyosiy qurol" vazifasini o'taydi. Shaxs erkinligidan ko'ra davlatning yaxlitligi, xavfsizligi va qonuniyligi (legitimligi) ustuvor tushuncha sanaladi.

Metodologik jihatdan bu yondashuv davlatni markazga qo'yuvchi tahlil va normativinstrumental uslubga tayanadi. Tadqiqotlar ko'pincha makroiqtisodiy usullar orqali intellektual migratsiya natijasida mamlakat iqtisodiyotida vujudga keladigan zararlarni, innovatsion salohiyatning pasayishini va strategik sohalardagi kadrlar yetishmovchiligini hisob-kitob qilishga qaratiladi. Hind iqtisodchisi J.Bhagvati (Bhagwati) 1970-yillarda "intellektual kapital oqishi solig'i" (brain drain tax) mexanizmini taklif qilgan bo'lib, bunda o'z vatanida bepul yoki arzon ta'lim olib xorijga ketgan yuqori malakali mutaxassislar xorijdagi ortiqcha daromadlaridan o'z davlatining rivojlanishi uchun tovon puli to'lashi kerakligi ilgari suriladi. Boshqa bir faylasuf J.Donadiyo "davlat legitimligi" va ijtimoiy shartnoma nazariyalariga tayanib, davlatning fuqaroga bergan ta'limi evaziga fuqaroning ma'lum muddat vatanda ishlab berish majburiyatini (vakolatga asoslangan yondashuvni) oqlaydi. Shuningdek, Strilkovskiy (Strielkowski) va boshqalarning tahlillari intellektual emigratsiyani to'g'ridan-to'g'ri milliy xavfsizlikka tahdid sifatida baholaydi, chunki kadrlar yo'qotilishi davlatning o'z fuqarolari oldidagi asosiy funksiyalarini bajarish qobiliyatini susaytiradi.

Neoklassik-ratsional yondashuv

Agar instrumental yondashuv diqqat markaziga davlatni qo'ysa, neoklassik-ratsional yondashuvda asosiy ontologik mezon erkin, ratsional tanlov qiluvchi individ, ya'ni "Homo Economicus" hisoblanadi. Bu yondashuv vakillari insonning mohiyatini uning individual manfaatlari, mehnat bozoridagi qadrini oshirish intilishlari va daromadini maksimallashtirish motivatsiyasi orqali izohlaydilar. Migrant o'z bilimini bozor qonuniyatlariga asosan eng yuqori narxda sota oladigan makonga harakatlanuvchi intellektual kapitali egasi deb qaraladi. Metodologik jihatdan ushbu yondashuv klassik "push-pull" iqtisodiy modellariga tayanadi. A.A.Subbotin fikricha, migratsiya bir tomonlama yo'qotish emas, balki qimmatbaho kapitalning

bozor signallariga mos ravishda kirish, chiqish va aylanma harakatdan iborat ko'p yo'nalishli oqimdir.

Ushbu yondashuvning eng inqilobiy nazariy rivojlanishi isroillik iqtisodchi Oded Starkning "Mehnat migratsiyasining yangi iqtisodiyoti" nazariyasi bilan bog'liq. Stark o'z tadqiqotlarida an'anaviy mutlaq daromad farqlari nazariyasini kengaytirib, "nisbiy qashshoqlik" tushunchasini fanga kiritdi. Uning fikricha, migratsiya haqidagi qaror faqat shaxsning o'zi tomonidan emas, balki ko'pincha oilaviy qaror sifatida qabul qilinadi. Oila a'zolari o'z moliyaviy holatini faqat xorijdagi maoshlar bilan emas, balki qishlog'idagi yoki jamiyatidagi boshqa oilalarning daromadiga nisbatan baholaydilar. Agar ularning ijtimoiy ierarxiyadagi nisbiy pozitsiyasi past bo'lsa, ushbu nisbiy qashshoqlikni yengish va ijtimoiy maqomni oshirish uchun oilaning eng iqtidorli a'zosi xorijga ishlash uchun jo'natiladi.

Starkning intellektual migratsiyaga oid yana muhim yondashuvi "Asimmetrik ma'lumotlar va rag'batlantirish tizimi" modelidir. Ushbu model orqali u "intellektual kapitalning oqishi" qanday qilib "intellektual kapitalning qaytishi"ga aylanishini tushintirib beradi. Unga ko'ra, iqtisodiyot migratsiya uchun ochiq bo'lganda, xorijdagi yuqori maoshlar imkoniyati vatanida qolayotgan yoshlarni ham ko'proq va sifatliroq ta'lim olishga undaydi. Chunki chet elda ishlash umidi inson kapitaliga qilinadigan investitsiyalarning kutilayotgan daromadlilikini oshiradi. Garchi o'qiganlarning ma'lum bir qismi xorijga ketib qolsa-da, bu "rag'batlantirish effekti" tufayli mamlakatda ta'lim olganlar soni shu qadar ko'payadiki, natijada migratsiya ketishidan keyin ham uyda qolgan aholining o'rtacha inson kapitali darajasi yopiq iqtisodiyotdagidan ko'ra yuqoriroq bo'lib chiqadi.

Ekzistensial-gumanistik yondashuv

Ekzistensial-gumanistik yondashuv neoklassik maktabning sof iqtisodiy determinizmini va instrumental maktabning insonni vosita deb bilishini qat'iyankor inkor etadi. Bu yondashuvning ontologik asosi insonning daxlsiz qadr-qimmatini, o'zlikni anglashi va ma'naviy erkinligidir. Intellektual migrant bu yerda iqtisodiy resurs emas, balki o'z hayotining chuqur mazmunini qidirayotgan, ijtimoiy muhitda o'z qadrini izlayotgan va erkinlikka intiluvchi takrorlanmas "butun bir olam" sifatida talqin etiladi. Metodologik nuqtayi nazardan bu maktab fenomenologiya, biografik hikoyalar, sifatli chuqur intervyular va axloqiy-normativ tahlil usullariga suyanadi. Diqqat markazida migrantning shaxsiy kechinmalari, identifikatsiya inqirozlari va ruhiy holati turadi.

A.A.Vartanyan va G.Madison kabi tadqiqotchilar o'z izlanishlarida ko'rsatib berganidek, ko'plab ziyolilar, olimlar va san'at vakillari uchun migratsiya sababini maoshning kamligi emas, balki jamiyatdagi etosfera (axloqiy muhit)da mavjud muammolardan izlash to'g'riroq. sShaxs

o‘z vatanida akademik erkinlikning yo‘qligi, korrupsiya, nepotizm yoki o‘z intellektual salohiyatining qadrsizlanishidan azob chekkanda, uning xorijga ko‘chishi shunchaki ish o‘rnini almashtirish emas, balki “o‘zini namoyon qilish” va ontologik jihatdan o‘zining barqarorligini saqlab qolish uchun qilingan murakkab ekzistensial tanlovdur. Ushbu yondashuv intellektual migratsiyani inson huquqlari va adolat kategoriyalari orqali baholaydi. Misol uchun, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tibbiyot xodimlarini yollash bo‘yicha xalqaro axloqiy kodeksi aynan gumanistik ruhda yozilgan bo‘lib, boy davlatlarning qashshoq davlatlardan tibbiyot xodimlarini tajovuzkorlik bilan yollashini axloqsizlik deb baholaydi va bunda global ijtimoiy adolatni ta‘minlashga chaqiradi. Gumanistik yondashuv shaxsning rivojlanish huquqini hurmat qilish bilan birga, uning ketishi ortidan jamiyatda qoladigan ahvol o‘rtasidagi axloqiy ziddiyatni ko‘rsatib beradi.

Tanqidiy-postkolonial yondashuv

Tanqidiy-postkolonial yondashuv intellektual migratsiyani o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan obyektiv tanlov sifatida emas, balki asrlar davomida shakllangan global tuzilmaviy tengsizlik, ekspluatatsiya va tarixiy mustamlakachilikning zamonaviy oqibati sifatida tahlil qiladi. Ontologik jihatdan bu yondashuv insonlar va jamiyatlarni muayyan sinfiy, irqiy va geosiyosiy ierarxiyalarning qurboni, intellektual migratsiyani esa iqtisodiy kuchlarning qashshoq periferiyadan boy markazlarga qarab davom etayotgan resurs o‘zlashtirishi deb ko‘radi.

Metodologiyasi tanqidiy realizm, tarixiy qiyoslash va diskurs tahliliga tayanadi. Ushbu yondashuvning metodologik negizlaridan birini S.Kastlz o‘zining tarixiy-strukturaviy paradigmasida rivojlantirgan. Ushbu yondashuvning muhim nazariy asoslaridan biri S. Kastlz tomonidan ishlab chiqilgan tarixiy-strukturaviy paradigma doirasida yanada rivojlantirilgan. Kastlz neoklassik iqtisodchilarning “migratsiya barcha uchun foydali bo‘ladi” degan optimistik qarashlarini tanqid qilib, xalqaro migratsiya ko‘pincha qaramlikni kuchaytiruvchi, rivojlanayotgan davlatlarni malakali ishchi kuchidan mahrum etuvchi assimetrik rivojlanishni keltirib chiqarishini asoslagan. Uning tahliliga ko‘ra, “intellektual kapitalning oqishi” qashshoq mamlakatlarni o‘z intellektual salohiyatini olib kelib, rivojlanish jarayonini sekinlashtiradi.

Bunga qo‘shimcha ravishda, Z.Goldston (Goldstone) va britaniyalik faylasuf M.Friker (Fricker) tadqiqotlarida intellektual migratsiyaning psixologik va kognitiv ekspluatatsiyasi ochib berilgan. Friker ilgari surgan “Epistemik nohaqlik” nazariyasi postkolonial tahlilning eng o‘tkir quroliga aylandi. Epistemik nohaqlik shaxsning biluvchi va ma‘lumot beruvchi subyekt sifatidagi qadr-qimmatini obyektiv bo‘lmagan stereotiplar (masalan, millati, irqi, jinsi) tufayli rad etilishi yoxud ishonchsizlikka uchrashidir. G‘arb mamlakatlariga ko‘chib o‘tgan rivojlanayotgan davlatlar olimlari yoki mutaxassisleri ko‘pincha malakaning kamsitilishi, bilimi darajasiga mos

bo'lmagan past ishlarga jalb qilinish jarayonini boshdan kechirishadi. Uchinchi dunyodan kelgan shifokor yoki o'qituvchilarning yillar davomida orttirgan tajribasi metropoliya davlatlarida shubha ostiga olinishi, ularning ovozi inkor qilinishi shunchaki byurokratiya emas, balki "tizimli nohaqlik" va kognitiv kamsitish hisoblanadi. Shu bois, postkolonial yondashuv "intellektual kapitalning oqishi"ni G'arbning qashshoq davlatlardan tarixiy o'zlashtirishi, intellektual mustamlakachilik va global adolatsizlik manbai deb hisoblaydi.

Gibrid-antropologik yondashuv

Beshinchi yirik paradigma – gibrid-antropologik yondashuv intellektual migratsiyani o'ta moslashuvchan, ko'p qirrali va bir-biriga chatishib ketgan ijtimoiy jarayon sifatida o'rganadi. Uning ontologik asosi postmodernizm va interaktiv realizmga tayangan bo'lib, insonni bir vaqtning o'zida iqtisodiy manfaatlarini ham, an'anaviy qadriyatlarini ham, shaxsiy o'zligini ham saqlab qolishga urinuvchi murakkab, ko'p identifikatsiyali ijtimoiy munosabatlar tuguni deb biladi. Metodologik jihatdan bu maktab aralash usullarga, transmilliy tahlilga, kundalik hayot sotsiologiyasiga va tarmoq tahliliga tayanadi. Masalan, R.O'rinboyev va Sh. Eraliyevlar tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, migrantlar rasmiy qonuniyatlardan ko'ra norasmiy "ko'cha qonunlari", madaniy kodlar va turli diasporalar tarmoqlari orqali moslashish va omon qolish strategiyalarini ishlab chiqadilar.

Bu yondashuvning dunyo miqyosidagi eng taniqli me'mori amerikalik sotsiolog A.Portes hisoblanadi. Portes va uning tarafdorlari an'anaviy "assimilatsiya" nazariyalarini qat'iy rad etib, intellektual migratsiyada transmilliylik va ijtimoiy kapital konsepsiyalarini yaratdilar. Portes tahlillariga ko'ra, globallashuv va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi muhojirlarga o'z vatanlari bilan aloqalarni uzmasdan, ikki yoki undan ortiq davlat chegaralarini kesib o'tuvchi muntazam, zich ijtimoiy va iqtisodiy tarmoqlarni yaratish imkonini bermogda. Portes ko'rsatadiki, transmilliylik retsipyent jamiyatga integratsiya bo'lmaganlarning chorasizligi emas, aksincha, eng yaxshi ta'lim olgan, yuqori malakali, moddiy jihatdan ta'minlangan va muvaffaqiyatli moslashgan muhojirlar ko'proq transmilliy faoliyat bilan shug'ullanadilar.

Portes migrantlarning "inson kapitali" ya'mo bilim va ko'nikmalar bilan bir qatorda ularning "ijtimoiy kapitali" (ishonchga asoslangan aloqalar, tanish-bilishchilik) o'ta muhim ekanligini ta'kidlaydi. Yuqori malakali intellektuallar o'z ijtimoiy kapitalidan foydalanib, yangi jamiyatda institutsional jihatdan to'liq anklavlar va transmilliy guruhlar shakllantira oladilar. Ular bir vaqtning o'zida vatani iqtisodiyotiga sarmoya kiritish, ilmiy loyihalarga masofadan rahbarlik qilish yoxud texnologiyalar transferini amalga oshirish orqali faol ishtirok etadilar. Portesning transmilliylik nazariyasi intellektual migratsiya bo'yicha avvalgi "ketish va qolish" dualizmini parchalab, jismoniy migratsiyasiz ham sodir bo'lishi mumkin bo'lgan "raqamli

diaspora” va “intelektual kapitalning aylanishi” jarayonlarini tushunish uchun mukammal nazariy instrument vazifasini o‘tab berdi.

Muhokama. Yuqorida keltirilgan yondashuvlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, intellektual migratsiya oddiy sabab-oqibat zanjiri bilan izohlab bo‘lmaydigan, murakkab ko‘p o‘lchovli fenomendir. Har bir yondashuv masalaning ma’lum bir tomonini ochib beradi va ayni paytda o‘z cheklovlariga ega. Ushbu turli nazariyalarning integratsiyasi va ularning o‘zaro ziddiyatlari xalqaro migratsiya diskursining metodologik rang-barangligini tashkil etadi.

Tarixiy nuqtayi nazardan qarasa, E.G.Ravenshteynning XIX asrda yaratgan qonuniyatlari garchi asosan ichki hududiy va sanoat migratsiyasiga e’tibor qaratgan bo‘lsa-da, uning makon va iqtisodiyotga doir xulosalari intellektual harakatlanish uchun fundamental asos bo‘ldi. Ravenshteynning “Har bir migratsiya oqimi qarshi oqimni ham keltirib chiqaradi” degan fikri bugungi kundagi Starkning reemigratsiya modellariga hamda Portesning transmilliylik va “intelektual kapitalning aylanishi” nazariyalariga konseptual asos vazifasini o‘tab bergan. Shuningdek, Ravenshteyn ko‘rsatib o‘tgan iqtisodiy motivlarning ustunligi neoklassik yondashuvning “homo economicus” g‘oyasi uchun asosiy argument bo‘lib xizmat qilgan.

Mazkur besh paradigmadagi farqlar bevosita ularning yakuniy xulosalarida keskin tafovutlarni yuzaga keltiradi. Agar biz instrumental yondashuv yoxud J.Bhagvatining “intelektual kapitalning oqishi solig‘i” taklifi nuqtayi nazaridan yondashsak, har qanday yosh olim yoki IT mutaxassisning xorijga ketishi davlat iqtisodiyoti va xavfsizligiga zarba sifatida qabul qilinadi. Bunday yondashuv davlatni qattiq proteksionistik siyosat olib borishga undaydi. Biroq bu strategiya ko‘pincha shaxsning erkin harakatlanish huquqlarini toptashi, byurokratik to‘siqlarni ko‘paytirishi sababli zamonaviy gumanistik va erkin bozor tamoyillariga ziddir. Ekzistensial yondashuv ta’kidlaganidek, agar jamiyatning o‘zida etosfera bo‘g‘iq bo‘lsa, mutaxassisni majburan ushlab turish innovatsiyaga emas, balki chuqur norozilik va ilmiy turg‘unlikka olib keladi.

Bunga muqobil ravishda, Stark taklif etgan neoklassik-ratsional yondashuv optimistik istiqbolni taklif etadi. Stark o‘zining “mehnat migratsiyasining yangi iqtisodiyoti” orqali Kastlz kabi strukturaviy pessimizm tarafdorlari bilan keskin bahsga kirishadi. Starkning “rag‘batlantirish tuzilmasi” tahliliga ko‘ra, xorijga ko‘chish ehtimolining mavjudligi mamlakat ichidagi ta’lim tizimini harakatga keltiruvchi ulkan dvigatel vazifasini bajaradi. Rivojlanayotgan davlat yoshlari chet elda yuqori daromad topish imkonini anglasalar, o‘z ixtiyorlari bilan til o‘rganishga, IT yoki tibbiy bilimlarni egallashga shoshiladilar. Garchi ularning bir qismi xorijga ketib qolsa-da, ketolmagan yoxud qolishni tanlagan ulkan qismning yuqori saviyasi mahalliy iqtisodiyotda ishlay boshlaydi va oldingidan ko‘ra yuqoriroq “inson kapitali darajasi”ni

ta'minlaydi. Ushbu qarash intellektual migratsiyani ta'limga sarmoyalarni stimulyatsiya qiluvchi katalizator sifatida tushunishni taqozo etadi.

Ayni paytda, Kastlz e'tirof etgan migratsiya fenomenining o'ta murakkabligi tamoyili hodisani faqat makroiqtisodiy raqamlar orqali o'lchashdek xato yondashuvdan himoya qiladi. Kastlz migratsiyani ijtimoiy transformatsiyaning ajralmas, ziddiyatli va assimetrik qismi deb biladi. Aynan mana shu strukturaviy ierarxiyani tushunish uchun Frikerning "epistemik nohaqlik" konsepsiyasini intellektual migratsiyaga integratsiya qilish o'ta muhimdir. Agar uchinchi dunyo vakili o'z yurtini tark etib, rivojlangan davlatlardagi universitetlar yoxud korporatsiyalarda o'z qobiliyati darajasida ish topa olmasa, stereotiplar sababli marginallashuvga yoki kamsitishlarga uchrab pastroq lavozimda ishlashga majbur bo'lsa, u nafaqat iqtisodiy yo'qotishga, balki axloqiy bosimga duchor bo'ladi. Demak, migratsiya bu shunchaki jismonan yashash joyini o'zgartirish emas, u shaxsning borlig'i va uning bilimiga bo'lgan munosabat bilan chambarchas bog'liq ziddiyatli hodisadir. Postkolonial yondashuv ana shu ierarxiyalarni parchalashni va rivojlanayotgan davlatlardan olinayotgan intellektual kapitalning adolatli kompensatsiya qilinishini kun tartibiga olib chiqadi.

Mazkur yondashuvlarni o'zida birlashtirib, XXI asr voqeligini eng aniq aks ettiruvchi nazariya sifatida Portesning transmilliylik g'oyasi namoyon bo'ladi. Gibril-antropologik yondashuv negizida yotuvchi bu g'oya shuni ko'rsatadiki, instrumental yondashuv tarafdorlarining xavotirlari ham, postkolonialistlarning pessimizmi ham raqamli asrda qisman o'z kuchini yo'qotmoqda. Portes isbotlaganidek, yuqori malakali migrant o'z vatanini butunlay tark etmaydi. Aksincha, ijtimoiy kapitalning kuchayishi, texnologik tarmoqlarga egaligi va moliyaviy resurslari ortishi bilan u transmilliy guruhlar tuzadi, diasporalar orqali o'z vatanining iqtisodiy-siyosiy hayotiga yanada faolroq, samaraliroq aralashadi. Bu esa o'z-o'zidan "intellektual kapitalning aylanishi" mexanizmini kafolatlaydi. Bunday tarmoqli ekotizimda mutaxassis qayerda yashashidan qat'i nazar, uning intellektual va ijtimoiy kapitali ham o'zi, ham vatani, ham qabul qiluvchi davlat uchun qo'shimcha qiymat yaratishda davom etadi.

Xulosa. Intellektual migratsiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishiga doir konseptual yondashuvlarning komparativistik tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqori malakali inson kapitalining xalqaro miqyosdagi mobilligini faqatgina bir taraf lama iqtisodiy yo'qotish yoxud yutuq prizmasida baholash mutlaqo samarasizdir. Ravenshteyn tomonidan qo'yilgan geografik va iqtisodiy poydevor bugungi globallashuv, raqamli aloqalar va inson huquqlari konvensiyalari ta'sirida mislsiz darajada kengayib, shunchaki masofaviy ko'chishdan g'oyalar, texnologiyalar, madaniyatlar va identitetlarning murakkab transmilliy sirkulyatsiyasi mexanizmiga aylangan.

Mazkur qiyosiy tahlilning eng asosiy xulosalari quyidagilardan iborat:

Birinchiidan, ilmiy paradigmalarning tarixiy evolyutsiyasi “intellektual kapitalning oqishi”dan “intellektual kapitalning qayrishi” ga va oxir-oqibat “intellektual kapitalning aylanishi” va transmilliylikka tomon uzluksiz o‘zgarib keldi. Bu jarayon davlatlarning migratsiyaga nisbatan proteksionistik siyosatdan voz kechib, uni global integratsiya va kapital orttirish vositasi sifatida qabul qilishi zarurligini uqtiradi.

Ikkinchiidan, epistemologik va gumanistik omillarning ahamiyati iqtisodiy rag‘batlardan qolishmaydi. Ekzistensial va postkolonial yondashuvlar ko‘rsatib berganidek, intellektual elita uchun jamiyatdagi ijodiy erkinlik, barqaror axloqiy muhit va ijtimoiy adolat tamoyillari hal qiluvchidir. Agar shaxs o‘z intellektual salohiyati turli streotiplar ostida ezilmasligini va munosib hurmat qilinishini his etsa, u jismonan vatanidan uzoqda bo‘lsa ham, kognitiv jihatdan o‘z xalqi taraqqiyotiga hissa qo‘shishda davom etadi.

Uchinchiidan, zamonaviy davlat boshqaruvi va migratsiya siyosati uchun gibridd-transmilliy yondashuvni qabul qilish o‘ta dolzarb. Davlatlar intellektual salohiyatli insonlarning ketishini fojia deb bilish o‘rniga, ijtimoiy kapital va tarmoqlar vositasida diaspora bilan doimiy ishlash, ularni vatandagi ilmiy-texnologik taraqqiyotga jalb etish hamda norasmiy hamkorlikni qonuniy rag‘batlantirish yo‘lidan borishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, intellektual migratsiyani o‘rganishda turli yondashuvlarning yutuqlarini o‘zida mujassam etgan ya‘ni individning erkinligi, ontologik xavfsizligi va huquqini ta‘minlagan holda, uning faoliyatini transmilliy tarmoqlar orqali o‘z davlati raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltiruvchi kompleks yondashuvigina XXI asrda inson kapitalini samarali boshqarishning optimal va progressiv asosi bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimov, S. (2021). The philosophical aspects of the transformation of the moral environment of migrants. In *Общественные науки в современном мире: политология, социология, философия, история* (pp. 84-87).
2. Aparicio Castro, A. L., et al. (2025). Estimating and conditional forecasting bilateral migration flows between South America and Europe. *International Migration Review*, 1–40.
3. Boucher, S., Stark, O., & Taylor, J. E. (2005). A gain with a drain? Evidence from rural Mexico on the new economics of the brain drain. University of California, Davis.
4. Castles, S. (2009). Development and migration—Migration and development: What comes first? Global perspective and African experiences. *Theoria*.
5. Castles, S., & Miller, M. J. (1998). *The age of migration: International population movements in the modern world* (2nd ed.). Macmillan Press.

6. De Haas, H. (2010). *Migration and development: A theoretical perspective*. International Migration Institute, University of Oxford.
7. Fricker, M. (2007). *Epistemic injustice: Power and the ethics of knowing*. Oxford University Press.
8. Fricker, M. (2013). Epistemic justice as a condition of political freedom. *Synthese*, 190(7), 1317–1332.
9. Guarnizo, L. E., Portes, A., & Haller, W. (2003). Assimilation and transnationalism: Determinants of transnational political action among contemporary migrants. *American Journal of Sociology*, 108(6), 1211–1248.
10. Kanning, M. (2012). *A philosophical analysis of intellectual property: In defense of instrumentalism* (Graduate thesis). University of South Florida.
11. Money, J. (2025). The politics of migration in the 21st century: Employing systemism to advance research strategies. *Social Sciences*, 14(2), 98.
12. Portes, A. (1976). Determinants of the brain drain. *International Migration Review*, 10(4), 489–508.
13. Portes, A., Guarnizo, L. E., & Landolt, P. (1999). The study of transnationalism: Pitfalls and promise of an emergent research field. *Ethnic and Racial Studies*, 22(2), 217–237.
14. Rees, P., & Lomax, N. (2020). Ravenstein's laws of migration: A comparison of 19th century and contemporary approaches. *Comparative Population Studies*.
15. Stark, O. (2004). The new economics of the brain drain. *World Development*, 32(1), 15–22.
16. Stark, O., & Taylor, J. E. (1991). Migration incentives, migration types: The role of relative deprivation. *The Economic Journal*, 101(408), 1163–1178.
17. Stark, O., Helmenstein, C., & Prskawetz, A. (1997). A brain gain with a brain drain. *Economics Letters*, 55(2), 227–234.
18. Yang, D. (2025). Brain drain or brain gain? New evidence points to benefits of skilled migration. *Science*.